



ARTPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK MUSIQA TA’LIMI O‘QITUVCHILARINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN ARTPEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Nasritdinova M.N.

Farg‘ona davlat universiteti musitaqil tadqiqotchisi

Tayanch so‘zlar: artpedagogika, ta’lim texnologiyalari, metodlar, musiqa ta’limi, amaliyot, integratsiya, fanlararo aloqadorlik.

Ключевые слова: арт-педагогика, образовательные технологии, методика, музыкальное образование, практика, интеграция, междисциплинарность.

Key words: art pedagogy, educational technologies, methods, music education, practice, integration, interdisciplinarity.

Kirish. Talabalarda badiiy-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalariga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligi asoslovchi tajriba-sinov natijalarimizda o‘z tasdig‘ini topdi. Zamonaviy texnologiyalar nafaqat ta’lim mazmunini tashkil etish, balki talabalarni badiiy-ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda qo‘l keladi. So‘nggi yillarda oliy ta’lim jarayonida rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlikdagi, dasturli, blok-modulli, shaxsga yo‘naltirilgan, o‘yinli va axbarot texnologiyalarda uzatilayotgan ma’lumotlar keng qo‘llab kelinmoqda. Har qanday ta’lim texnologiyasi uzluksiz ta’limning qaysi bo‘g‘inida qo‘llanilmasin, markazida ta’lim oluvchi shaxsi va uning qiziqishlari va ehtiyojlari inobatga olinishi kerak. Bugungi kun zamonaviy ta’lim sohalariga qo‘yilayotgan talablar va mehnat bozoridagi buyurtmadan kelib chiqib mazkur tadqiqotimizda badiiy va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari tizimlashtirildi shu asnoda artpedagogik yondashuv tamoillari ishlab chiqildi.

Artpedagogikaning maqsadi – ta’lim oluvchilarning badiiy rivojlanishi, ularda badiiy madaniyat asoslarini shakllantirish, madaniy vositalar orqali ijtimoiylashishda ko‘maklashishni nazarda tutadi[1]. Ta’limda bugungi kun

pedagoglari bilan bir qatorda ta'lim olayotgan yosh iste'dodlarga yuqori talablar qo'yilmoqda va natijada zamonaviy ta'lim intensivlashishga, integratsiyalashishga majbur bo'lmoqda. Shuning uchun o'qitishni amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularni sayqallashtirish tendentsiyasi davr talabiga aylanmoqda. Ushbu holat oliy ta'lim tizimida 2021-yildan ayrim tabaqalashtirilgan mutaxassislik yo'nalishlari bakalvriat bosqichi 4 yillik ta'limdan 3 yillikka qisqartirilganiva ushbu qisqartirishlar mehnat bozoridagi buyurtma talablariga javob berishi, ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilar bilim sifatiga aslo salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, aksincha darv talabiga, zamonaviy ta'lim standartlariga monand mutaxassislar yetishtirib chiqarish kabi istiqbolli natijalar kutilmoqda[2]. Shunday ekan bugungi kun ta'limi intensivlashishga va shu bilan birga yanada faollashishga majbur.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar amaliyotda talabalarga ta'lim berish bilan bir qatorda ularning ichki dunyosini tarbiyalash va rivojlantirish uchun vaqt yetishmayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Mazkur muammolarni bartaraf etishda artpedagogika imkoniyatlaridan foydalanish zarurati tug'iladi.

Faylasuflar, o'qituvchilar va psixologlar estetik tarbiya masalasiga doimo jiddiy e'tiborli bo'lib, bu masala xorijiy va mahalliy adabiyotlarda juda keng yoritilgan. Estetik tarbiya masalasi bilan A.F.Losev, V.A.Suxomlinskiy, B.T.Lixachev, V.N.Shatskaya va boshqalar kabi MDH davlatlari arboblari shug'ullangan.

Artpedagogikaning asosiy g'oyalariga mos keladigan dars mazmuni "tashqi va ichki" tamoyillar asosida qurilgan bo'lib, tashqi ko'rinishidan ruhiy-ma'naviy, ichki tuzilish tarkibi esa turli murakkablikdagi tafakkur talab etadigan aqliy-axloqiy g'oya birligidir.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishga yanada samarali ta'sir ko'rsatishni ta'minlash uchun sinfda, darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin bo'lgan alohida artpedagogika sinfini tashkil qilish tavsiya etiladi.

Natijalar va muhokama. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda artpedagogika vositasini, texnologiyasini qo'llash innovatsion hisoblanadi. Dars mashg'ulotlari o'zaro bog'liq vaziyatlar, mashqlardan iborat dasturiy o'yinga asoslanadi. Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda artpedagogika vositasini qo'llashning tarkibiy modeli fiziologo-psixologo-pedagogik va musiqiy-badiiy-estetik faoliyatga, shuningdek, oltita asosiy o'zaro bog'liq va bir birini to'ldiruvchi elementlarga asoslanadi[4].



Artpedagogik yondashuv asosida bo‘lajak musiqa ta’limi o‘qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik modeli

**Badiiy-estetik faoliyat
Tarbiya**

**Psixo-fiziolo-pedagogik faoliyat
Ta’lim**

Artpedagogikaning fanlararo aloqadorligi

Musiqa madaniyati

Tasviriy san’at

O‘qish

Jismoniy tarbiya

Tarbiya

Texnologiya

Kompleks ta’sirning ijodiy-tarbiyaviy natijalari. Artpedagogik yondashuv asosida dars mashg‘ulotlarini tashkillashda o‘qituvchidan ijodkorlik qobiliyati, mustahkam xotira, yuqori intellekt talab etilib, jarayonga psixologik tayyor bo‘lishi, improvizatsiya, o‘z-o‘zini anglash zarurligini his qilish, pedagogik ijod asoslarini bilish, ritorika, dramaturgiya asoslarini o‘zlashtirish, ularni amaliyotda qo‘llay olish, o‘z faoliyat uslubini yo‘lga qo‘yishi va odatiy stereotiplardan qochishi, pedagogik didni shakllantirish, o‘z faoliyatini buzishdan, yangiliklardan qo‘rqmasligi talab etiladi. Artpedagogik yondashuv asosida ish olib borayotgan o‘qituvchining faoliyati aniq yechimlar bermasdan ijodkorlikni rag‘batlantirish va bolani motivlantirish, uning tasavvur maydonini kengaytirish, tinglash va o‘z his-tuyg‘ulariga ishonishni o‘rgatishdir. Mazkur ta’lim shakli kelajak hayotda unga muammoli-nizoli vaziyatlarni ijodiy idrok etishga va yengishga yordam beradi, uni yangi ma’no va qadriyatlarga ega bo‘lishga, jamiyatdajtimoiylashishga, munosabatlar tizimiga moslashishga, favqulodda muammolarni aniqlash va hal qilishga o‘rgatadi[3].

Artpedagogikaning asosiy texnologiyalari – interfaol o‘yin va pedagogik improvizatsiyaga asoslanadi. Darsni artpedagogik yondashuv asosida tashkil etishda asosiy metod muammo-muloqot usuli bo‘lib, u talaba shxsida Badiiy-ijodiy, ma’naviy-shaxsiy sohani rivojlantirishga, axloqiy tarbiya, axloqiy-estetik immunitetni shakllantirishga qaratilgan. Mazkur metodning asosi nafaqat suhbat asosidagi navbatma-navbat ma’lumot almashish ko‘rinishidagi diolog, balki muammoning yechimini qidirishda umumiy pozitsiyalarni tizimlashtirish va mutanosiblashtirishni nazarda tutadi. Ushbu metodning ustunligi shaxsda hissiy cheklov, yengillik va ichki erkinlikdirga erishishdir.

Artpedagogik yondashuv asosida qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar:

Musiqiy texnikani artpedagogikaning turli uslublari bilan osongina birlashtirish va darsning istalgan bosqichida foydalanish mumkin. Dars jarayonida musiqadan foydalanish nafaqat o‘quvchining hissiy holatiga ta’sir

qiladi, balki yangi ma'lumot qabul qilayotgan talabalarni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, balki asabiy taranglikni yo'qotadi va tananing umumiy faoliyatiga foydali ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarga maxsus tanlangan musiqiy asarlarni tinglash, idrok etish jarayonida o'zlashtirilgan o'z tajribalari, xotiralari, fikrlarini muhokama qilish taklif etiladi, so'ngra ularga muvofiq taassurot tasvirlari (chizmalar, raqs harakatlari, plastik fantaziyalar, mavzu sohalariga qarab) yaratadi.

Folklor texnikasi shaxslararo muloqotni yo'lga qo'yishga, bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyot namunalari ijodidan foydalanish talabalarning bilim faolligini, individual qobiliyatlarini, o'z-o'zini tarbiyalash, mustaqil fikrlash istagini rivojlantirishga imkon beradi.

Vizual materiallar bilan o'yin-mashqlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarining hissiy-emotsional tarangligini kamaytiradi, ularning his-tuyg'ulari va tajribalarini tushunishga yordam beradi, emotsiyalarini boshqarishni o'rgatadi.

1. **Qoya rasmlari.** Maxsus tayyorlangan doskaga katta qog'oz varaq yopishtiriladi, muayyan ta'limiy muammo beriladi va u yerda talabalar berilgan mavzu asosida o'zlari hohlagan narsalarni (rangli qalamlar, flomasterlar va boshqalar) chizadilar.

2. **O'z kayfiyatingni tasvirla.** O'qituvchi talabalarni o'zlari xohlagan bo'yoq rangini tanlashni va oq qog'ozda uning hozirgi kayfiyatini ifodalovchi rangli chiziqlar, dog'lar, doiralar, naqshlarni chizishni taklif qiladi. Qog'oz varog'ini ikki qismga bo'lib, birida dars boshlanishidan oldingi kayfiyat, ikkinchisida - tugagandan keyingi holatini chizib tasvirlash.

3. **Qo'rquv, hayajon hissini yo'qotish.** Talabadan eng ko'p qo'rqadigan narsani tasvirini tushurish so'raladi, so'ngra uning chizgan rasmi muhokama qilinadi. Shundan so'ng, bolaga qaychi beriladi va uning "qo'rquvini" kesish (yoki yirtib tashlash) so'raladi. Variant: dars davomida unga yoqmagan, to'sqinlik qilgan, foydasiz deb topgan narsalarni chizish taklif qiliadi.

4. **Hazilomus chizmalar.** Mashq parada amalga oshiriladi. Ishtirokchilardan biri geometrik figurani (raqam, harf) tasavvur qiladi va uni barmog'i bilan havoda "chizadi". Ikkinchisining vazifasi "chizilgan" narsani taxmin qilishdir. Keyin rollar o'zgaradi. Mazkur mashqlar yuz mushaklaridan "taranglikni" yechishga yordam beradi, kuylash faoliyatini yo'lga qo'yishdan avval xonanda faoliyatida zarur bo'lgan artikulyatsion mashqlar bilan o'rin almashtirilishi mumkin.

**Adabiyotlar:**

1. Зубарева Н.С. Современный урок в арт-педагогической парадигме. //Мастер-класс, 2009, №9.
2. 2020/2021-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori <https://president.uz/uz/lists/view/3651>
3. Nasritdinova M. Artpedagogik yondashuv asosida bolajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik ta'minoti. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(4), 2023. – В. 241-246.
4. Асмолов А.Г. Психология личности: Принципы общепсихологического анализа: Учебник для студ. высш. учеб. заведений. Рек. Мин. обр. РФ. – 2-е изд., перераб. / А.Г. Асмолов. М.: Смысл; Академия, 2002.
5. Насритдинова, М.Н. Научно-теоретические основы исцеления детей с патологией, связанных с гипоксии, посредством искусств. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 2022. – С. 385-393.

РЕЗЮМЕ

Artpedagogika o'zida yetarlicha ijodiy-tarbiyaviy imkoniyatlarni mujassam etgani bilan istiqbolli va qaysidir ma'noda texnologik universalligi bilan barcha yosh xususiyatlaridan, aqliy imkoniyatlari, badiiy va axloqiy tarbiyasi darajasidan qat'iy nazar ta'lim oluvchilar bilan til topishishda mustahkam ko'priklarni bo'lib hizmat qiladi. Mazkur maqolada bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda artpedagogik yondashuvning imkoniyatlari tahlil qilinadi.

РЕЗЮМЕ

Артпедагогика перспективна, поскольку включает в себя достаточно творческих и образовательных возможностей и в определенном смысле при своей технологической универсальности является прочным мостом в общении с учащимися независимо от их возраста, умственных способностей, уровня художественного и нравственного воспитания. В данной статье анализируются возможности арт-педагогического подхода в развитии творческой компетентности будущих учителей музыкального образования.

SUMMARY

Art pedagogy is promising because it includes enough creative and educational opportunities and, in a certain sense, with its technological versatility, is a strong bridge in communication with students, regardless of their age, mental abilities, level of artistic and moral education. This article analyzes the possibilities of the art-pedagogical approach in developing the creative competence of future music education teachers.